

Oriental Journal of Education



WAYS TO INTEGRATE QUICK SKETCHING EXERCISES INTO THE PEDAGOGICAL PROCESS

Navruz Suyunov*Independent Researcher, Karshi State University**Lecturer, Shahrisabz State Pedagogical Institute**E-mail: navruz.suyunov.n@gmail.com**Shahrisabz, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: quick sketch, rapid drawing, pedagogical process, integration, observation, imagination, artistic thinking, creative exploration, graphic exercises, art education.

Received: 23.12.25**Accepted:** 24.12.25**Published:** 25.12.25

Abstract: This article analyzes the ways of integrating quick sketch exercises into the pedagogical process. Quick drawing practices play an important role in developing students' observation, imagination, artistic thinking, and creative activity. The aim of the study is to examine the scientific and methodological foundations of effectively implementing quick sketches into art education. The research employed pedagogical observation, experimental training, and comparative analysis. The results showed that integrating quick sketch exercises into the educational process enhances drawing speed, freedom, observation skills, and students' creative exploration. The article is devoted to a comprehensive study of integrating quick sketch practices into pedagogical practice.

TEZKOR CHIZGI MASHQLARINI PEDAGOGIK JARAYONGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI

Navro'z Suyunov*Mustaqil tadqiqotchi**Qarshi Davlat Universiteti**Shahrisabz davlat pedaogigka instituti o'qituvchisi**e-mail: navruz.suyunov.n@gmail.com**Shahrisabz, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tezkor chizgi, tez qalamchizgi, pedagogik jarayon, integratsiya, kuzatuvchanlik, tasavvur, badiiy tafakkur, ijodiy izlanish, grafik mashqlar, san'at ta'limi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tezkor chizgi mashqlarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish yo'llari tahlil qilinadi. Tez qalamchizgi mashqlari talabalarning kuzatuvchanlik, tasavvur, badiiy tafakkur va

ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi — tezkor chizgi mashqlarini san'at ta'limi jarayoniga samarali joriy etishning ilmiy-metodik asoslarini o'rganishdan iborat. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov ishlari va taqqoslash metodlari qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tezkor mashqlarni integratsiya qilish talabalarda chizgi tezligi, erkinlik, kuzatuvchanlik va ijodiy izlanishni oshiradi. Maqola ushbu mashqlarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning kompleks tadqiqotiga bag'ishlangan.

ПУТИ ИНТЕГРАЦИИ УПРАЖНЕНИЙ ПО БЫСТРОМУ РИСУНКУ В ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС

Навруз Суюнов

Независимый исследователь Каршинского

Государственного университета

Преподаватель Шахрисабзского государственного

Педагогического Института

E-mail: navruz.suyunov.n@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: быстрый рисунок, быстрые зарисовки, педагогический процесс, интеграция, наблюдательность, воображение, художественное мышление, творческий поиск, графические упражнения, художественное образование.

Аннотация: В статье анализируются пути интеграции упражнений по быстрым зарисовкам в педагогический процесс. Упражнения по быстрому рисунку играют важную роль в развитии наблюдательности, воображения, художественного мышления и творческой активности студентов. Цель исследования - изучить научно-методические основы эффективного внедрения быстрых зарисовок в процесс художественного образования. В исследовании применялись методы педагогического наблюдения, опытно-экспериментальные работы и сравнительный анализ. Полученные результаты показали, что интеграция быстрых зарисовок в учебный процесс способствует росту скорости рисунка, свободы, наблюдательности и творческого поиска студентов. Статья посвящена комплексному исследованию внедрения данных упражнений в педагогическую практику.

Kirish. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy san'at ta'limida talabalarni ijodiy faoliyatga yo'naltirishda tezkor chizgi mashqlarini pedagogik jarayonga samarali integratsiya qilish masalasi muhim o'rin tutadi. Tez qalamchizgi mashqlari talabalarni kuzatuvchanlikka, tasavvur va obrazli tafakkurga o'rgatib, ularning ijodiy mustaqilligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu muammo nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyo san'at ta'limi tizimida ham dolzarbdir, chunki tezkor mashqlar nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki talabaning umumiy estetik didini shakllantirishga ham yordam beradi.

Adabiyotlar sharxi. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tezkor chizgi mashqlari ta'lim jarayonida integratsiya qilinganda talabalar badiiy tafakkuri va kuzatuvchanligi tezroq shakllanadi (V.A. Slastenin, B.G. Ananyev, N.B. Kuzmin). Ularning nazariy qarashlarida tezkor mashqlarni amaliy jarayonda qo'llash ta'lim samaradorligini oshirish vositasi sifatida baholangan. Mahalliy adabiyotlar (N.N. Rostovsev, G.V. Beda, V.S. Kuzin) esa tez qalamchizgi mashqlarining talabalarda mustaqil fikrlash va obrazli tasvir ko'nikmalarini shakllantirishdagi rolini yoritgan. Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqa mutafakkirlarning ilmiy-pedagogik qarashlarida esa kuzatuvchanlik va tasavvur qobiliyatini rivojlantirish shaxsiy kamolotning muhim sharti sifatida ko'rsatilgan.

Avvalgi tadqiqotlarda tez qalamchizgi mashqlarini pedagogik jarayonga integratsiya qilishning amaliy mexanizmlari yetarlicha ochib berilmagan. Xususan, ularning bosqichma-bosqich qo'llanilishi, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish yo'llari hamda pedagogik sharoitlaridagi samaradorligi chuqur tahlil qilinmagan.

Ushbu bo'shliqlar mazkur maqolaning maqsadini belgilash imkonini berdi. Maqolaning maqsadi - tezkor chizgi mashqlarini pedagogik jarayonga samarali integratsiya qilishning metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- tezkor qalamchizgi mashqlarining psixologik-pedagogik asoslarini o'rganish;
- ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilishning samarali yo'llarini aniqlash;
- tajriba-sinov ishlari orqali metodikaning amaliy samaradorligini isbotlash.

Maqola tezkor chizgi mashqlarini pedagogik jarayonga tatbiq etishning nazariy asoslarini yoritish bilan birga, amaliy metodik tavsiyalarni ham taqdim etadi. Bu tavsiyalar pedagoglarga mashg'ulotlarda talabalar ijodiy faoliyatini rivojlantirish, kuzatuvchanlikni kuchaytirish va tasavvur qobiliyatini kengaytirishda yordam beradi.

Tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, tez qalamchizgi mashqlari orqali talabalarni badiiy tafakkurga o'rgatish ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali metod sifatida qaraladi. Masalan, V.A. Slastenin o'z tadqiqotlarida san'at ta'limida ijodiy faoliyatni rag'batlantirishning asosiy vositasi sifatida tezkor mashqlarni alohida qayd etadi. N.F. Gonobolin kuzatuvchanlik va tasavvurni rivojlantirish shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan. Shuningdek, B.G. Ananyev

inson tafakkurining psixologik mexanizmlarini tahlil qilar ekan, tezkor mashqlarni badiiy idrokni faollashtirish vositasi sifatida ko'rsatadi.

Rossiyalik olimlardan N.N. Rostovsev va V.S. Kuzin o'z ilmiy izlanishlarida tez qalamchizgi mashqlari o'quvchilarda obrazli tafakkurni rivojlantirish, grafika va rangtasvir bo'yicha aniq tasavvurlar hosil qilishda samarali ekanini ilmiy asoslab bergan. G.V. Beda esa ushbu mashqlarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki estetik didni shakllantirishga ham xizmat qilishini ko'rsatadi.

Mahalliy adabiyotlar tahlilida ham mazkur masala alohida yoritilgan. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida kuzatuvchanlik va tafakkurni tarbiyalashni barkamol shaxs shakllanishi uchun zarur omil deb ta'riflaydi. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarida ham obrazli tafakkur va ijodiy tasavvurning badiiy faoliyatdagi o'rni keng ko'rsatib o'tilgan. Zamonaviy o'zbek pedagog olimlari - X. Abdurahmonov, Sh. Yusupov va M. Jo'raevlarning ilmiy maqolalarida tez qalamchizgi mashqlari talabalarning kuzatuvchanligini oshirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda tasviriy san'atdagi texnik ko'nikmalarni mustahkamlashda samarali metod ekanligi qayd etiladi.

Xorijiy mualliflar muammoni texnik va metodik nuqtai nazardan ko'rib chiqsalar, mahalliy olimlar ko'proq pedagogik va tarbiyaviy jihatlariga e'tibor qaratishgan. Shu sababli tez qalamchizgi mashqlarini pedagogik jarayonga to'liq tatbiq qilishda ularning o'zaro uyg'unlashuvi muhim metodik asos yaratadi. Mazkur tahlillar shuni ko'rsatadiki, tezkor mashqlarning talabalarda badiiy tafakkur va obrazli tasavvurni rivojlantirishdagi roli keng imkoniyatlarga ega, biroq bu borada aniq metodik tavsiyalar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Metodlar. Tadqiqot chegaralarini ta'riflash. Ushbu tadqiqotning eksperimental chegaralari Shahrizabz davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi talabalari bilan o'tkazilgan mashg'ulotlar bilan bog'liq bo'ldi. Tajriba mashg'ulotlari asosan tez qalamchizgi mashqlarini bajarishga yo'naltirildi.

Tadqiqot savollari va gipotezasi. Belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi savollar shakllantirildi:

Tez qalamchizgi mashqlari talabalarning obrazli tafakkurini rivojlantiradimi?

Ushbu mashqlar kuzatuvchanlik va ijodiy tasavvurni faollashtirishda qanday natija beradi?

Gipoteza sifatida: "Tez qalamchizgi mashqlarini muntazam va bosqichma-bosqich tashkil etish talabalarning badiiy tafakkurini sezilarli darajada rivojlantiradi", degan faraz ilgari surildi.

Tadqiqot metodlari va usullarini tanlash asoslari. Yetakchi metod sifatida pedagogik kuzatuv, amaliy mashg'ulotlarni tahlil qilish, nazorat va tajriba guruhlari faoliyatini taqqoslash tanlandi. Bu usullar tezkor mashqlar samaradorligini real sharoitda baholash imkonini berdi. Shuningdek, grafik tahlil, diagramma va jadval asosida natijalarni umumlashtirishdan foydalanildi.

Tadqiqotning eksperimental bazasi va uning tanlanish asoslari.

Tadqiqotning eksperimental bazasi sifatida Shahrisabz DPI san'atshunoslik kafedrası tanlandi. Tanlov sababi shundaki, bu kafedra talabalari tasviriy san'at yo'nalishida faol mashg'ulot olib boradi va tez qalamchizgi mashqlarini o'quv jarayonida qo'llash uchun qulay sharoitga ega.

Tajriba kontingenti sifatida 2–3 kurs talabalari jalb qilindi. Ular nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Guruhlarni tanlash sababi — ularning grafik ko'nikmalari bir-biriga yaqin darajada bo'lgani tufayli natijalarni solishtirish imkoniyati yaratildi.

Eksperiment bosqichlari:

Birinchi bosqich: Talabalarning dastlabki tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun diagnostik testlar va kuzatuv ishlari o'tkazildi.

Ikkinchi bosqich: Tez qalamchizgi mashqlarining metodik asosida mashg'ulotlar tashkil qilindi.

Uchinchi bosqich: Yakuniy sinov mashqlari va ijodiy topshiriqlar orqali natijalar baholandi.

Bosqichlarning jami o'quv jarayonini to'laqonli qamrab oldi.

Baholash mezonlari. Baholash mezonlari sifatida kuzatuvchanlik darajasi, obrazli tafakkurning rivojlanishi, chizmalarning tezligi va aniqligi olindi. Ushbu mezonlar pedagogik kuzatuv, amaliy ishlarni tahlil qilish hamda maxsus baholash varaqalari orqali tekshirildi.

Eksperimentning borishi va uning o'tkazilish shartlari.

Eksperiment jarayoni o'quv mashg'ulotlariga integratsiya qilingan holda olib borildi. Mashg'ulotlarda talabalar qisqa vaqt oralig'ida turli kompozitsiyalarni chizishga jalb qilindi. Sharoit sifatida bir xil vaqt limiti, o'xshash topshiriqlar va baholash mezonlari ta'minlandi.

Natijalar va Muhokama. Maqoladagi eksperiment bosqichlarining mantiqiga ko'ra tadqiqot uch bosqichda tashkil etildi: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy.

Tayyorgarlik bosqichida talabalar qalamchizgi mashqlarini bajarishda kuzatuvchanlik darajasi va chizish tezligida sezilarli farqlar kuzatildi. Dastlabki sinov natijalari talabalar orasida obrazli tafakkur va tezkor tasvirlash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatdi.

Asosiy bosqichda muallif tomonidan ishlab chiqilgan tez qalamchizgi metodikasi joriy qilindi. Mashg'ulotlarda talabalar qisqa vaqt ichida turli xil predmetlar, inson figuralari va kompozitsion obyektlarni chizishga jalb etildi. Bu jarayon talabalarni kuzatuvchanlikni oshirish, tasavvurni kengaytirish hamda chizishda aniqlik va tezlikni uyg'unlashtirishga undadi.

Yakuniy bosqichda esa tajriba va nazorat guruhleri natijalari taqqoslandi. Jadval va diagrammalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, tajriba guruhidagi talabalar kuzatuvchanlik, obrazli tafakkur va chizish tezligi bo'yicha nazorat guruhiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga erishdi. Masalan, tajriba guruhida chizish aniqligi 35–40% ga, ijodiy yondashuv darajasi esa 45% ga oshganligi qayd etildi.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan metodika quyidagi natijalarga erishishga imkon berdi:

- Talabalarda kuzatuvchanlik sezilarli darajada rivojlandi.
- Obrazli tafakkur va tasavvur jarayoni mustahkamlandi.
- Chizish tezligi va aniqligi oshdi, estetik idrok kengaydi.
- Talabalarning ijodiy mustaqilligi va erkin fikrlash qobiliyati rivojlandi.

Ushbu natijalar shuni isbotlaydiki, tez qalamchizgi mashqlarini muntazam ravishda pedagogik jarayonga qo'llash nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki badiiy tafakkurni ham shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Maqoladagi natijalarni umumlashtirib aytganda, tez qalamchizgi mashqlari talabalarda kuzatuvchanlik, obrazli tafakkur va ijodiy yondashuvni rivojlantirishda muhim metodik vosita ekanligi tasdiqlandi. Maqolada taklif etilgan pedagogik integratsiya modeli samaradorligi isbotlandi. Taklif etilgan metodika samaradorligi tajriba va nazorat guruhlar natijalari orqali tasdiqlandi.

Olingan natijalar xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning oldingi ilmiy ishlari bilan qisman mos keldi, biroq ba'zi jihatlarida farqlar kuzatildi. Xorijiy olimlar, masalan N.F. Gonobolin va V.A. Slastenin o'z tadqiqotlarida chizgi mashqlari kuzatuvchanlikni oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlagan bo'lsa, bizning tadqiqotimiz bu jarayonning badiiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rnini yanada kengroq ko'rsatib berdi. Mahalliy tadqiqotchilar esa tez qalamchizgi mashqlarining talabalarda tasavvur va estetik idrokni mustahkamlashdagi ahamiyatini urg'ulaganlar, bizning natijalar ham bu g'oyalarni tasdiqladi.

Olingan natijalar ilmiy munozarada boshqa olimlarning qarashlarini boyitishga xizmat qiladi. Masalan, ba'zi tadqiqotchilar chizish tezligi va aniqlikni texnik mashqlar orqali shakllantirish mumkin deb hisoblasalar, bizning tadqiqotimizda tez qalamchizgi mashqlari ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqligi isbotlandi.

Mazkur tadqiqotning oldingi tadqiqotlardan ajralib turuvchi xususiyati shundaki, tez qalamchizgi mashqlari nafaqat texnik ko'nikma sifatida, balki badiiy tafakkurni rivojlantirishning samarali metodik modeli sifatida ham nazariy va amaliy asoslandi.

Xulosa. Maqolada tez qalamchizgi mashqlarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish yo'llari tahlil qilinib, ularning talabalarda badiiy tafakkur, kuzatuvchanlik va obrazli tasavvurni rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot davomida tajriba va nazorat guruhlar o'rtasida olib borilgan taqqoslash natijalari tez qalamchizgi mashqlari samarali qo'llanganda talabalar ijodiy mustaqilligi, estetik didi va chizish tezligi sezilarli darajada oshishini ko'rsatdi.

Muallif tomonidan taklif etilgan metodika talabalarning san'at ta'limida yangi yondashuvlarni o'zlashtirishiga yordam beradi hamda ularning amaliy mashg'ulotlardagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Mazkur tavsiyalar san'at ta'limi jarayoniga tatbiq etilganda o'quvchilarning grafik ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish, ularni ijodiy izlanishga rag'batlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Shunday qilib, tez qalamchizgi mashqlari ta'lim amaliyotida nafaqat yordamchi mashq sifatida, balki badiiy tafakkur, kuzatuvchanlik va ijodiy tafakkurni shakllantirishning muhim metodik modeli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev, Sh. (2010). San'at ta'limida ijodiy yondashuv. Toshkent.
2. Alberti, L. B. (1435). De pictura (On Painting). Florence.
3. Arnheim, R. (1974). Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye. University of California Press.
4. Avloniy, A. (1918). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent.
5. Barrett, T. (2000). Criticizing Art: Understanding the Contemporary. McGraw-Hill.
6. Beruniy, A. R. (1998). Tanlangan asarlar. Toshkent.
7. Boymetov, B. (2006). Qalamtasvir. Toshkent: Musiqqa nashriyoti.
8. Da Vinci, L. (1500). Notebooks. Florence.
9. Dewey, J. (1934). Art as Experience. New York: Minton, Balch & Co.
10. Dürer, A. (1525). Underweysung der Messung. Nuremberg.
11. Edwards, B. (1979). Drawing on the Right Side of the Brain. Los Angeles.
12. Eisner, E. (2002). The Arts and the Creation of Mind. Yale University Press.
13. Forobiy, A. N. (1993). Fozil odamlar shahri. Toshkent.
14. Hetland, L., Winner, E., Veenema, S., & Sheridan, K. (2007). Studio Thinking: The Real Benefits of Visual Arts Education. Teachers College Press.
15. Ignatyev, E.I. (1987). Psikhologiya khudozhestvennogo vospriyatiya. Leningrad.
16. Kuzin, V.S. (1982). Metodika prepodavaniya risovaniya. Moskva.
17. Lebedko, V.K. (1990). Metodika izobrazitel'nogo iskusstva v shkole. Moskva.
18. Lowenfeld, V. (1947). Creative and Mental Growth. New York: Macmillan.
19. Medvedev, L.G. (1995). Pedagogika iskusstva. Moskva.
20. Navoi, A. (1991). Xamsa. Toshkent.